



UDK: 316.6:172.15-053.2

Mohim BOBOYEVA,

Mehnat va ijtimoiy munosabatlar Akademiyasi dotsenti v.v.b., PhD

E-mail: mohimboboyeva@gmail.uz

TDTTrU professori, f.f.d J.Ramatov taqrizi asosida

BOLALARGA NISBATAN ZO'RAVONLIKNING IJTIMOYIY FALSAFIY TAHLILLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada zo'rvonlik va uni turlari. Zo'rvon shaxslarni o'ziga xos xususiyatlari, zo'rvonlikni kelib chiqish sabablari va ko'rinishlari. Zo'rvon shaxs belgilari. Oilada bolalarga nisbatan zo'rvonlikning nomoyon bo'lish shakllari va ko'rinishlari haqida yoritilgan. Bolalarga nisbatan zo'rvonlikni shakllari va ijtimoiy oqibatlarini, bugungi kundagi oilaviy zo'rvonlikda bolalarga nisbatan zo'rvonlikni sabablari va uni bartaraf qilish bo'yicha ota – onalarga tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Zo'rvonlik, bolalar zo'rvonligi, oilaviy munosabatlar, zo'rvonlik turlari, zo'rvonlik shakllari.

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ НАСИЛИЯ В ОТНОШЕНИИ ДЕТЕЙ

Аннотация

В данной статье рассматривается насилие и его виды. Обсуждаются специфические характеристики агрессивных личностей, причины и проявления насилия. Признаки агрессивной личности. Рассматриваются формы и проявления насилия в отношении детей в семье. Разработаны формы и социальные последствия насилия в отношении детей, причины насилия в отношении детей в современной семье, а также рекомендации для родителей по его предотвращению.

Ключевые слова: Насилие, насилие над детьми, семейные отношения, виды насилия, формы насилия.

SOCIAL AND PHILOSOPHICAL ANALYSES OF VIOLENCE AGAINST CHILDREN

Annotation

This article discusses violence and its types. The specific characteristics of violent individuals, the causes and manifestations of violence. Signs of a violent individual. The forms and manifestations of violence against children in the family are discussed. Forms and social consequences of violence against children, the causes of violence against children in today's family violence, and tips for parents on how to eliminate it have been developed.

Key words: Violence, child violence, family relationships, types of violence, forms of violence.

Kirish. Qadimdan insonlar boshqalar ustidan hukmronlik qilishda eng tasirli usullardan biri sifatida zo'rvonlikdan foydalanishgan. Mustamlaka siyosatidan boshlab, shaxsni bo'ysundurishgacha bo'lgan barcha ijtimoiy munosabatlarda asosiy ta'sir quroli sifatida zo'rvonlik ishlatilgan. Zo'rvonlikning asosida doimo hokimiyat, hukmronlik va mavqega intilish turgan. O'z maqsadlariga erishish uchun har qanday salbiy ta'sirlaridan foydalanish hisoblanadi.

Zo'rvonlikning eng keng tarqalgan shakllariga: Jismoniy zo'rvonlik : bu insonni tana azolariga qasddan ma'lum aniq maqsadni ko'zlagan holda ta'sir ko'rsatish hisoblanadi. Buni ko'proq jismoniy majburlash yoki urush hsakli sifatida ko'rishimiz mumkin. Siyosiy zo'rvonlik : bu insonlarni siyosiy harakatga, hokimiyatga yoki tuzumga bo'ysunishga majburlash shaklida nomoyon bo'ladi. Buni ham amaliy ko'proq jismoniy yoki ma'naviy zo'rvonlik orqali ta'sir ko'rsatishini ko'rishimiz mumkin. Siyosiy zo'rvonlikni yuksak ko'rinishi genotsid jinoyatlar hisoblanadi. Ruhiiy zo'rvonlik: bu zo'rvonlik shakli nomoyon bo'lish shakli yopiq ammo ta'sir kuchi va davolanish jarayonlari qiyin kechadigan shakl hisoblanadi. Buni asosiy ta'sir shakllari: og'zaki tahdidlar, haqoratlar, tashvish, qo'rqitish, diniy ta'sirlarda ko'ramiz. Eksterimizm va terrorizm oqimlari vakillari aynan shu usldan samarali foydalanishgan. Jinsiy zo'rvonlik: bu o'z nomi bilan shaxsni jinsiy aloqaga majburlash shaklida nomoyon bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. "Zo'rvonlik" tushunchasi atama sifatida adabiyotlarda turlicha talqin va tahlil

qilinadi. "Bolalarni zo'rvonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunida zo'rvonlik - Bolaning hayotiga, sog'lig'iga, jinsiy daxlsizligiga, sha'niga, qadr-qimmatiga hamda qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari va erkinliklariga tajovuz qiladigan, jismoniy yoki ruhiy azob yetkazayotgan yoki yetkazishi mumkin bo'lgan hamda asosiy ehtiyojlariga zid bo'lgan, shu jumladan telekommunikatsiya tarmoqlaridan va Internet butunjahon axborot tarmog'idan foydalangan holda amalga oshiriladigan, qasddan sodir etiladigan harakat (harakatsizlik) bolalarga nisbatan zo'rvonlik deb e'tirof etiladi. Bu sohada yirik ilmiy tavsiyalar ishlab chiqqan olim Landon Roberts esa ushbu xususida "Bolalarga nisbatan zo'rvonlikning eng yomon ko'rinishlari kaltaklash, jinsiy zo'rvonlik va yaralash hisoblanadi. Ammo ular bilan bir qatorda, zaif bolaning ruhini zaiflashtiradigan ko'plab omillar mavjud. Xo'rlash, e'tiborsizlik, zo'rvonlik ba'zan bolaning hali rivojlanmagan ruhiyatiga tuzatib bo'lmas shikast yetkazadi. Bolalarga nisbatan zo'rvonlik ota-onalar, tarbiyachilar, o'qituvchilar - bir so'z bilan aytganda, bola tarbiyasi bilan bevosita bog'liq bo'lgan barcha shaxslar tomonidan toqat qilinadigan yomon munosabatni anglatadi" deb tariflagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda bolalarga nisbatan zo'rvonlikning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini chuqur anglash maqsadida kompleks, tizimli va ko'p darajali metodologik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi ijtimoiy falsafa, sotsiologiya, psixologiya hamda huquqiy fanlar kesishgan nuqtada shakllantirildi.

Avvalo, tadqiqotning nazariy asosini dialektik yondashuv tashkil etib, unda zo'rvonlik fenomeni ijtimoiy munosabatlar tizimida o'zgaruvchan, qarama-qarshiliklarga boy va tarixiy rivojlanishda shakllanuvchi hodisa sifatida tahlil qilindi. Bu yondashuv orqali zo'rvonlikning individual psixologik omillari bilan bir qatorda, uning ijtimoiy-madaniy va institutsional ildizlari ham ochib berildi.

Shuningdek, sistemali tahlil metodi qo'llanilib, bolalarga nisbatan zo'rvonlik jamiyatning o'zaro bog'liq bo'lgan tarkibiy qismlari — oila, ta'lim tizimi, ijtimoiy muhit va huquqiy institutlar doirasida o'rganildi. Mazkur metod orqali zo'rvonlikning nafaqat individual, balki ijtimoiy tizim darajasidagi sabab va oqibatlari aniqlashtirildi.

Tadqiqot jarayonida komparativ (qiyosiy) tahlil usulidan ham foydalanilib, turli ilmiy manbalarda zo'rvonlik tushunchasining talqinlari, uning shakllari va oqibatlari o'zaro solishtirildi. Jumladan, bolalarga nisbatan zo'rvonlik jismoniy, ruhiy, jinsiy va e'tiborsizlik kabi asosiy shakllarga ajratilishi ilmiy manbalar asosida umumlashtirildi. Bu esa mazkur hodisaning ko'p qirrali ekanligini ilmiy asoslash imkonini berdi.

Empirik jihatdan esa kuzatuv, umumlashtirish va statistik ma'lumotlarni tahlil qilish metodlari qo'llanildi. Zo'rvonlik holatlarining sabablari, ayniqsa oilaviy muhit, tarbiya darajasi va ijtimoiy omillar bilan bog'liqligi tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bolalarga nisbatan zo'rvonlik ko'pincha noto'g'ri tarbiya usullari, psixologik bosim va ijtimoiy muhitdagi muammolar bilan chambarchas bog'liqdir.

Bundan tashqari, ijtimoiy-falsafiy interpretatsiya usuli orqali zo'rvonlik fenomeni inson qadri, axloqiy meyorlar va ijtimoiy adolat tamoyillari nuqtai nazaridan tahlil qilindi. Ushbu yondashuv zo'rvonlikni nafaqat ijtimoiy muammo, balki ma'naviy-axloqiy inqiroz ko'rinishi sifatida talqin etishga imkon berdi.

Natijada, qo'llanilgan metodologik yondashuvlar majmui bolalarga nisbatan zo'rvonlikni kompleks tarzda — uning sabab, shakl va oqibatlari birligida o'rganish hamda ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish imkonini yaratdi.

Natija va muhokamalar. Mazkur tadqiqot doirasida olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, bolalarga nisbatan zo'rvonlik ijtimoiy hayotning turli darajalarida namoyon bo'luvchi murakkab va ko'p omilli hodisa hisoblanadi. Tahlillar natijasida zo'rvonlikning jismoniy, ruhiy, jinsiy va e'tiborsizlik kabi asosiy shakllari aniqlanib, ularning har biri bolaning shaxsiy rivojlanishiga o'ziga xos salbiy ta'sir ko'rsatishi ilmiy asoslandi. Ayniqsa, ruhiy zo'rvonlikning yashirinligi va uzoq muddatli psixologik oqibatlari uning eng xavfli shakllardan biri ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, bolalarga nisbatan zo'rvonlikning kelib chiqish omillari asosan oilaviy muhit, ijtimoiy-iqtisodiy sharoit va shaxsiy psixologik holatlar bilan bog'liqdir. Jumladan, ota-onalarning pedagogik savodxonligi pastligi, oiladagi nosog'lom psixologik muhit, shuningdek, zo'rvonlikni tarbiya vositasi sifatida qabul qilish kabi stereotiplar muammoning kengayishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa zo'rvonlikning avloddan-avlodga o'tuvchi ijtimoiy hodisa sifatida takrorlanishiga olib keladi.

Muhokama jarayonida yana bir muhim jihat — zo'rvonlikning ijtimoiy ongda to'liq anglanmaganligi masalasi e'tiborga olindi. Ko'plab hollarda ota-onalar yoki tarbiyachilar o'z harakatlarini zo'rvonlik sifatida emas, balki "tarbiya usuli" sifatida baholaydilar. Bu esa zo'rvonlikni yashirin shaklda davom etishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, zamonaviy axborot makonida tarqalayotgan salbiy kontentlar ham bolalarning ruhiy holatiga bilvosita ta'sir ko'rsatib,

zo'rvonlikni normal holat sifatida qabul qilishga olib kelishi mumkin.

Shuningdek, ilmiy muhokamalar natijasida zo'rvonlikning faqat individual yoki oilaviy muammo emas, balki kengroq ijtimoiy tizim bilan bog'liqligi asoslandi. Jamiyatda ijtimoiy tengsizlik, ishsizlik, stress omillari va ma'naviy qadriyatlarining zaiflashuvi zo'rvonlikning kuchayishiga zamin yaratadi. Shu bois, muammoni hal etishda faqat jazolash choralariga tayanish yetarli emas, balki profilaktik, ma'rifiy va psixologik yondashuvlarni uyg'unlashtirish zarur.

Bugungi kunda zo'rvonlikning har qanday shakli va ko'rinishi qat'yan taqiqlangan bo'lsada, ammo ayrim holatlarda ularni ko'rinishlari uchrab qolyapti. Insonlarning ayrimlari hattoki qilayotgan ishlari zo'rvonlik shakli ekanligini tushunib yetmasliklari bu muammoning jamiyat ijtimoiy hayotidan chiqib ketishini qiyinlashtirmoqda. Masalan, bolasini urayotgan ayollar. Ular nazdida bolani urush orqali uni tarbiyalayapti, tartibga chaqiryapti yoki axloqiy buzulishlarini vaqtida to'g'irlashga harakat qilyapman deb tushunishyapti. Ammo bu bolada kelajakda men ham o'z farzandlarimga bo'lgan munosabatda shunday tarbiya usulidan va shaklidan foydalansam bo'ladi degan ko'nikmani shakllanishiga olib boryapti. Natijaga zo'rvonlik sulolaviy an'ana sifatida davom etib kelyapti.

Aholi o'rtasida o'tkazilgan tadqiqot doirasida shu ma'lum bo'ldiki, ayollarning o'z farzandlariga nisbatan zo'rvonlikni qo'llashlari har 10 ta onadan 2 tasida psixik buzulish natijasida sodir bo'layotgan psixik holat ekan. Yani bolasini urishi, tahqirlashi, haqoratlashi kaltaklashi onadagi psixologik affect holatida sodir bo'lar ekan. Soddarog aytisak ona bu hatti harakati natijasini tushunmasdan, oqibatlarini o'ylab tahlil qilmasdan ushbu harakatini sodir qiladi. Qolgan sakkizta ona esa turli ijtimoiy sabablar natijasida bolasiga nisbatan zo'rvonlik qo'llaydi. Bularga oilasida shunday muhitda o'sgani, ayolga nisbatan turmush o'rtog'i yoki qaynonasi tomonidan tomonidan behurmat munosabatda bo'linishi, ayolning boshqa shaxslar tomonidan kaltaklanishi, o'z hayot darajasidan va maqomidan alamzadalik, turmush o'rtog'i yoki yaqin qarindoshlaridan bola orqali o'ch olish maqsadida sodir qilinadi.

Psixik holatdagi buzulish natijasida zo'rvonlik qilgan va ijtimoiy ta'sirlar natijasida zo'rvonlik qilgan shaxslarni yagona farqli xususiyati shundaki, psixik holatdagi zo'rvon shaxs o'z hatti — harakatidan pushaymonlik, uyalish, afsus qilishmaydi. Ijtimoiy ta'sirlar natijasida zo'rvonlik qilgan ayollar esa o'z xatti- harakatlaridan chuqur afsus va pushaymonlik his qilishadi.

Bolalar ijtimoiy muhofazaga muhtoj qatlam nuqtai nazaridan eng birinchi darajali ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlar hisoblanadi. Ularni huquqlari va erkinliklarini ta'minlash davlatning engoldingi o'rindagi vazifalaridan hisoblanadi. Zo'rvonliklar shakllarini barchasiga nisbatan bolalarga oid munosabatlarda murosasiz shakl qo'llaniladi, chunki bolalar birinchi darajali muhofazalandigan guruh hisoblanadi. Bolalarga oid zo'rvonlikda davlat tomonidan bir qator ustunliklar berilgan. Bolalar hayotiga erkinligiga, daxlsizligiga va qadr — qimmatiga nisbatan har qanday harakat yoki harakatsizlik zo'rvonlik sanaladi. Hattoki ushbu zo'rvonlik internet tarmog'i yoki boshqa turdagi telekommunikatsiya vositalari bo'yicha sodir qilingan harakat yoki harakatsizlik hisoblanasa ham. Bundan anglashimiz mumkinki, bolalarni fiziologik va psixologik rivojlanishiga ta'sir qiluvchi axborot materiallari, ko'rsatuvlar, vinelar, multfilmlar, kinolar ham bolalarga nizbatan zo'rvonlikni ko'rinishlari hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bolalarga nisbatan zo'ravonlik nafaqat individual xulq-atvor yoki oilaviy muammo, balki jamiyatning ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy va ma'naviy tizimi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan murakkab ijtimoiy-falsafiy hodisadir. Zo'ravonlikning jismoniy, ruhiy, jinsiy va e'tiborsizlik kabi shakllari bolalarning nafaqat jismoniy rivojiga, balki ularning psixologik barqarorligi, ijtimoiylashuvi va kelajakdagi hayotiy pozitsiyasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Tahlillar shuni anglatadiki, zo'ravonlikning ildizlari ko'pincha oilaviy muhitdagi nosog'lom munosabatlar, tarbiya madaniyatining yetarli darajada shakllanmaganligi, ijtimoiy tengsizlik, psixologik zo'riqish hamda axloqiy qadriyatlarining zaiflashuvi bilan izohlanadi. Shu bois, ushbu muammoni faqat huquqiy choralar orqali emas, balki kompleks ijtimoiy-falsafiy yondashuv asosida hal etish zarur.

Shu asosda quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

Birinchi, jamiyatda bolaga nisbatan munosabatni tubdan o'zgartirish, uni mustaqil shaxs va oliy qadriyat sifatida e'tirof etuvchi ma'naviy-axloqiy paradigmatlarni shakllantirish zarur.

Ikkinchidan, oilaviy tarbiya tizimini takomillashtirish maqsadida ota-onalar uchun psixologik-pedagogik bilimlarni oshirishga qaratilgan tizimli dasturlarni joriy etish lozim.

Uchinchi, ta'lim muassasalarida zo'ravonlikning oldini olishga qaratilgan profilaktik va diagnostik mexanizmlarni kuchaytirish, bolalar bilan ishlovchi mutaxassislar malakasini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

To'rtinchidan, bolalarga nisbatan zo'ravonlik holatlarini erta aniqlash va bartaraf etish uchun ijtimoiy xizmatlar, psixologik yordam va huquqiy himoya tizimlarini integratsiyalashgan holda rivojlantirish zarur.

Beshinchidan, ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalarda bolalarning ongiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi kontentlarni cheklash, aksincha, pozitiv tarbiya va insonparvarlik g'oyalarini targ'ib etuvchi axborot siyosatini kuchaytirish lozim.

Umuman olganda, bolalarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi kurashish jamiyatning barcha institutlari — oila, ta'lim tizimi, davlat va fuqarolik jamiyati hamkorligida olib boriladigan uzluksiz va kompleks jarayon bo'lishi zarur. Faqat shundagina bolalarning xavfsiz, sog'lom va barkamol rivojlanishi uchun zarur ijtimoiy muhitni yaratish mumkin bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi. "Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi Qonun. 15.08.2024.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. "Bolalarga nisbatan zo'ravonlik holatlarini aniqlash va himoya qilish tartibi to'g'risida"gi Nizom, 440-son qaror. 14.07.2025.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "2026–2030 yillarga mo'ljallangan bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmon. 24.12.2025.
4. Roberts L. Bolalarga nisbatan zo'ravonlik: turlari, sabablari va oldini olish. – Zamonaviy axborot portali.
5. Abdushohidova Z.S. Bolalarga nisbatan zo'ravonlik va uning oldini olish choralari // Science and Education, 2023.
6. Mirzamahmudova Sh.M. Bolalarga nisbatan zo'ravonlik turlari va uning ahamiyati // New Renaissance International Scientific Conference, 2025.
7. Xoshimova M.B. Zo'ravonlikka uchragan bolalar bilan ijtimoiy ish texnologiyalari // Academic Research in Modern Science, 2023.
8. Abdulova T.P. Aggressivnyy podrostok. – Moskva: Akademiya, 2008.
9. Alekseeva I.A. Travlya v shkole: prichiny, posledstviya, pomoshch. – Elektron resurs.
10. Kim L., Isayeva D., Tadjiyeva S.X., Sobirova D.G. Bolalar va oilalar bilan ijtimoiy ish amaliyoti. – Toshkent, 2012.
11. Vohidov X. Din va jamiyat: oila mustahkamligi yo'lida. – Toshkent: Islom universiteti nashriyoti, 2021.
12. Nishonova M.Ya., Kamolova A.O. O'smirlarga huquqiy bilim berishda keys-stadi texnologiyasidan foydalanish // Ekonomika i sotsium, 2021.